

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mar oylarida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 12 770,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 13,1 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 115,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston respublikasi bo'yicha yaimning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.

### 2024-yilning yanvar-mart oylarida Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  **YAHM o'sish sur'ati**
-  **YAHM hajmi**
-  **YAHM deflyator indeksi**
-  **YAIMga qo'shgan hissasi**



**2024-yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

	<i>Mlrd. so‘m</i>		<i>O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>9 781,8</b>	<b>12 770,5</b>	<b>113,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	9 500,3	12 423,3	113,0
mahsulotlarga sof soliqlar	281,5	347,2	115,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>9 500,3</b>	<b>12 423,3</b>	<b>113,0</b>
<b>qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>1 932,6</b>	<b>2 153,4</b>	<b>103,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>3 256,0</b>	<b>4 967,4</b>	<b>127,0</b>
sanoat	2 733,9	4 336,4	129,6
qurilish	522,1	631,0	113,2
<b>xizmatlar</b>	<b>4 311,7</b>	<b>5 302,5</b>	<b>106,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	898,8	1 074,5	110,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	730,3	895,4	111,5
boshqa xizmat tarmoqlari	2 682,6	3 332,6	104,7

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 754,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,7 % ga yuqoridir.

**2024-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan  
YAHM hajmi (ming so‘mda)**



**2024-yilning yanvar-mart oylarida Aholi jon boshiga hisoblangan  
YAHMning o‘sish sur’atlari  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha**  
**YAHM tarkibi**  
*(jamiga nisbatan % da)*

	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	97,1	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	2,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	20,3	17,3
<b>sanoat (qurilishni qo‘sghan holda)</b>	<b>34,3</b>	<b>40,0</b>
sanoat	28,8	34,9
qurilish	5,5	5,1
<b>xizmatlar</b>	<b>45,4</b>	<b>42,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9,5	8,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,7	7,2
boshqa xizmat tarmoqlari	28,2	26,9

2024-yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 17,3 %ni, sanoat tarmog'i 34,9 %ni, qurilish 5,1 %ni va xizmatlar sohasi 42,7 %ni tashkil qildi.


### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 8,3 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – salbiy 0,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – salbiy 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 1,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. ga ko'paydi.

### 2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,3 %), sanoatda – 129,6 % (34,9 %), qurilishda – 113,2 % (5,1 %), xizmatlar sohasida – 106,9 % ni (42,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,0 % (8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,5 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,7 % dan (26,9 %) iborat bo'ldi.

### **Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari**

#### **bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**

*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*



2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 122,4 % va xizmatlarda – 115,0 % qayd etildi.

### Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari

#### bo‘yicha deflyator indeksi

(o ‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023-y.

2024-y.



YAHM

113,9 %

115,5 %



Qishloq, o‘rmon  
va baliqchilik xo‘jaligi

119,2 %

108,2 %



Sanoat

108,3 %

122,4 %



Qurilish

106,1 %

106,8 %



Xizmatlar


119,2 %

115,0 %

2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 7 005,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 5 939,6 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 56,4 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 62,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

### 2023-2024-yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichidir;

**Yalpi ishlab chiqarish (YAICH)** – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

**Aholi jon boshiga YAHM** – muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘silgan qiymat (YaQQ)** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘silgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat byudjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**YAHM fizik hajm indeksi** – o‘tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o‘tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

**YAHM indeks-deflyatori** – hudud iqtisodiyotida narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.